# Qashqadaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

*2026- yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot*

I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
IV. METAMA'LUMOTLAR
V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

## I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat koʻrsatayotgan tijorat korxonalari soni 6 863 tani tashkil etib, shundan, faoliyat koʻrsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, chik korxona va mikrofirmalar soni 6 847 tani tashkil qildi

2026- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 14 882,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2025- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 109,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 897,6 mlrd. soʻmni (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish sur'ati 132,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 12 052,4 mlrd. soʻm (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish sur'ati 107,7 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 932,2 mlrd. soʻmni (oʻsish sur'ati 113,2 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi oʻsish sur'ati** *(% da)*




Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining oʻsish sur'ati (oylik)]

### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi




*(ulushi foizda)*

## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026- yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 462 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 14 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 448 tani tashkil qildi.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2026- yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 6 387,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 545,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 86,8 % ni tashkil qildi.

### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi *(mlrd. so'm)*




Mavzuga doir havola: Ulgurji savdo hajmi (oylik)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hudud Qarshi tumanida 4,7 marta o'sish kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari** *(foizda)*




Mavzuga doir havola: Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati (oylik)

## III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 645 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 3 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 642 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 11 325,4 mlrd.so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 10,9 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 93,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’atlari** *(foizda)*




## IV. METAMA’LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, O‘zbekiston Respublikasining me’yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko‘rsatmalar va tavsiyalar “Milliy hisoblar tizimi, 2008”, “Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo‘yicha xalqaro tavsiyalar” (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko‘rsatkichini hisoblash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo‘mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo‘yicha o‘tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo‘shgan holda hisoblangan.

## V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

Ulgurji savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ulgurji savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasi hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Chakana savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi (hududlar kesimida, oylik)
Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o‘sish sur’ati (hududlar kesimida, oylik)

**Chiqarish uchun javobgar:**
*Xizmatlar va savdo sohasi  statistikasi bo'limi*

**Manzil:** *180100, Qashqaryo viloyati, Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy* **Pochta:** qashstat@umail.uz
*Tel.: 75-221-44-28*